

O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI YANADA RIVOJLANTIRISH VA TARJIMONLIK FAOLIYATINING AHAMIYATI

Ismoilova Umida Toxirjon qizi

Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti Xorijiy filologiya fakulteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti: ingliz tili yo`nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O`zbekiston turizm sohasidagi muammolar va yechimlar hamda mamlakatning turistik salohiyatini oshirish uchun gid hamrohligi va sifatli tarjimonlik faoliyatining ahamiyati borasida xulosalar keltirilgan.*

Kalit so`zlar: *Turizm, sayyohlar, eksport xizmatlari, BTSK, arxeologik obidalar, tarjimonlik faoliyati, madaniy meros, gid.*

Turizm (sayyohlik) sohasi dunyo iqtisodining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Jamiyat uchun turizm - bu dunyo va uning go'zalligini bilish, turli xalqlarning madaniyati bilan tanishish va maroqli hordiq chiqarish uchun qulay imkoniyatlar yaratib beruvchi sohadir. Uning keng qamrovli taraqqiyoti esa, ko'plab mamlakatlar uchun katta daromad manbaiga aylanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan dunyoda yildan-yilga yangidan-yangi turistik maskanlarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Buning natijasida soha bo'yicha katta yutuqlarga erishgan mamlakatlar o'zlarining turistik salohiyatlarini yanada takomillashtirishga, xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga harakat qilmoqdalar.

BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti ma'lumotida 2015 yilda dunyo bo'yicha 1 milliard 184 million sayyoh qayd etilgan bo'lsa, 2016 yil yakuni bo'yicha bu ko'rsatkich 1 milliard 235 millionga ya'ni, 3.9 foizga oshgan. Sayohatchilarga ko'rsatilgan eksport xizmatlari qiymati 2015 yilda qariyb 1,5 trillion AQSh dollarini tashkil qilgan. 2016–2017 yillarda ham bu raqamlarda katta tafovutni ko'rish mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, sayyohlik sohasi bugungi kunning eng muhim iqtisodiy sohalaridan biriga aylandi.

Turizmning samaradorlik darajasi quyidagi raqamlarda o'z aksini topgan:

2015 yilda eng ko'p xorijlik mehmonlarni qabul qilishda Fransiya (83,7 million), AQSh (74,8 million), Ispaniya (65,0 million), Xitoy (55,6 million) va Italiya (48,6 million) kuchli beshlikda turishibdi. Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya va Meksika kuchli o'ntalikdan joy olgan. Biroq bu ko'rsatkich bo'yicha Yevropa va Osiyoning bir nechta shaharlari yetakchilik qilmoqda. Bunga misol qilib Hongkong (27,7 million), London (17,4 million), Singapur (17,1 million), Bangkok (16,2 million) va Parij (15,0 million) singari shaharlarni keltirish mumkin. Afsuski, O'zbekiston bu sohada hali ancha orqada ekanligini ko'rish mumkin. Xususan, Butunjahon turizm va sayohatlar bo'yicha kengashi (BTSK) tomonidan berilgan bahoga ko'ra, O'zbekiston sayyohlar tashrifi bo'yicha

dunyo mamlakatlari orasida 150-o'rinni egallaydi. Yurtimiz jahon sayyohlik bozorida o'z o'rniga ega bo'lishiga qaramasdan, turistlarga qulay sharoit yaratish, servis xizmatini yaxshilash, sayyohlik obidalarining jozibadorligini oshirish va reklamani kuchaytirish darajasi juda past. Bundan tashqari yurtimizda gid va tarjimonlik sifati yaxshilangan deb aytolmaymiz. Xalqaro turizm taraqqiyotida har doim turli muammolar yuzaga kelgan. Bunday muammolar mentalitet, til, urf-odat, an'ana va axloqiy tamoyillarning bir-biridan tubdan farq qilishi bilan bog'liq.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti. Sayyohlar oqimini yanada oshirish, ularni mamlakatimizning dunyoga mashhur maskan va obidalariga ohangrabodek jalb qilish uchun nima qilishimiz kerak?

O'zbekiston katta tarixiy-madaniy merosga – 7300 dan ortiq qadimiy-me'moriy va arxeologik obidalarga ega. Ularning ko'pchiligi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon va Toshkent shaharlarida joylashgan. Yurtimizdagi 200 dan ziyod tarixiy yodgorlik va obidalar YuNeSKOning madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Nahotki shuncha tarixiy va boy madaniy meroslarimiz bo'la turib, ularni dunyoga tanita olmasak?

Prezidentimiz dunyoning 33 ta mamlakatida O'zbekiston elchixonalari faoliyat ko'rsatayotgan elchilarga qarata qilgan onlayn murojaatida O'zbekistonga xorijiy investitsiya hamda turistlarni jalb qilishni, ayniqsa, har bir elchiga har kuni 10 nafar sayyoh jo'natishga e'tibor berishni ta'kidladi. Ya'ni, turist ham investitsiya degani, degan g'oyani ilgari surdi. Hozirgacha xorijiy mamlakatlarda O'zbekiston haqida ko'proq ma'lumotlarni targ'ibot qilishda oqsoqlikka yo'l qo'yilmoqda. Xususan, bugungi kunda yurtimizga tashrif buyurayotgan aksariyat sayyohlar turizm firmalari tomonidan jalb etilmoqda. Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida O'zbekiston haqida aholida yetarlicha ma'lumot yo'q. Ular aynan turfirmalar orqali eshitib, qiziqish bildirib kelishmoqda.

Bundan tashqari chet elda bo'lgan sayyoh, bu mamlakatga bir necha marta tashrif buyurgan bo'lsa ham, har doim ma'lum darajada stressni boshdan kechiradi. Shuning uchun u yashash joyining o'zgarishiga, boshqa qonunlar va an'analarga, iqlim va vaqt zonasining o'zgarishiga moslashishi kerak. Bunday vaziyatda unga to'g'ridan-to'g'ri hamrohlik qiluvchi va psixologik yordam beruvchi gid-tarjimonlar yordamga kelishi zarur. Turistni psixologik qo'llab quvvatlash bilan bog'liq jarayon atrof-muhit sharoitlariga moslashishda yordam berish (mamlakatning urf-odatlarini, an'analari va qonunlari), kutilmagan vaziyatlarda turistni qo'llab quvvatlashni o'z ichiga oladi. Psixologik yordam chet ellik sayyohda mamlakatda qulay dam olishi mumkinligi haqida ijobiy taassurot qoldirishga yordam berishi kerak. Psixologik usullarni yaxshi

bilmaydigan gid-tarjimon stressli vaziyatlarga dosh bera olmasligi, nizolar yuzaga kelganda sarosimaga tushib qolishi va shuning uchun xorijlik sayyohga yetarlicha psixologik yordam bera olmasligi mumkin. Bundan tashqari, psixologik jihatdan tayyor bo'lmagan gid-tarjimonning o'zi mojaroga sabab bo'lishi yoki uni kuchaytirishi mumkin. Xorijlik sayyohlarni kuzatib borishdagi navbatdagi muammo gid-tarjimon lavozimlariga salohiyatli xodimlarni tanlab olish, ularni yanada rivojlantirish va malakasini oshirishdir. Zero, malakali kadrlar yetishmasligi turizm xizmatlari bozorida rivojlanish kuzatilmasligiga sabab bo'ladi. Gid-tarjimonlik faoliyati bilan shug'ullanish nafaqat oliy kasbiy ma'lumot, ish tajribasi, balki potensial xodimning ma'lum shaxsiy va kasbiy fazilatlarini to'plamini ham talab qiladi. Ko'pincha, ish beruvchi ishga qabul qilishda bu fazilatlarga emas, balki diplom va undagi baholarga e'tibor beradi. Diplom va undagi baholarning mavjudligi hali xodimning samaradorligini va uning salohiyatini ko'rsatmaydi. Bo'lajak xodimning shaxsiy va kasbiy tajribasi, uning motivatsiyasi ham muhimdir.

Turizmni rivojlantirishga doir talab va takliflar

Yurtimiz ravnaqi yo'lida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar negizida Vatan, xalq manfaati turibdi. Barcha sohalarda islohotlar amalga oshirilyapti. Bunday ijobiy o'zgarishlar, rivojlanishni yangi bosqichga ko'tarish uchun, hammamiz o'z vazifamizni chin yurakdan ado etishimiz, fidoyi bo'lishimiz lozim. Turizm sohasini rivojlantirish va sayyohlar sonini oshirish borasida takliflarim quyidagicha:

- Turizm sohasida faoliyat yuritmoqchi bo'lgan tadbirkorlarga imtiyozli kreditlarni berish hamda jahon andozalariga javob beradigan mehmonxonalar sonini ko'paytirish, shu orqali raqobatni kuchaytirish, mehmonxona narxlarini arzonlashtirish. Chunki turpaketlar narxi oshgan sayin, yurtimizga keladigan sayyohlar soni ham pasayib boradi. Buning natijasida ular ancha arzon narxlarga ega bo'lgan boshqa mamlakatlarga borishni afzal ko'rishadi.

- O'zbekistonni turistik davlat sifatida yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan soha mutaxassislari bilan hamjihatlikda O'zbekiston to'g'risida bitta ixcham «sayyohlar uchun qo'llanma» tayyorlanib, uni barcha tillarga tarjima qilib, arzon narxda yoki agarda imkoni bo'lsa, bepul chet sayyohlik firmalariga tarqatish.

- Yurtimiz, urf-odat va an'analarimiz, milliy qadriyat va boy tarixiy merosimiz haqida hujjatli va badiiy filmlar konkursi e'lon qilinsa va eng saralarini rag'batlantirib, ular yaratgan filmlarni ingliz, nemis va boshqa tillarga dublyaj qildirib, xalqaro konkurslarda qatnashsak, sayyohlar soni oshishi tayin.

- Xodimlarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini rivojlantirish va takomillashtirish muammosini qilish malaka oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha ta'lim dasturlarini amalga oshirish va bu quyidagilarga imkon beradi:

- xodimlarning kasbiy malaka darajasini oshirish;

- kadrlar yetishmasligi va almashinuvi muammosini qisman yoki to'liq hal qilish;
- nazorat choralari xarajatlarini kamaytirish.

Gid-tarjimonlarni moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirish, shuningdek, ularning o'sish imkoniyatini ta'minlash xorijlik sayyohlarga xizmat ko'rsatish sifatiga yaxshi ta'sir qiladi, chunki turistik tashkilotlarning malakali xodimi xorijlik mehmonga mamlakatimizni chiroyli va maftunkor ko'rinishda taqdim eta oladi, ularga ushbu sayohatdan unutilmas, ijobiytaassurot qoldiradi. Natijada esa mamlakatning turizm sohasidagi nufuzi oshadi, chunki ketgan xorijlik sayyoh nafaqat qaytib keladi, balki o'z tanishlari va do'stlariga ham mamlakatimizdagi turistik imkoniyatlarni tavsiflaydi. Shuningdek, huquqiy muammolarni hal qilishda qonunchilikni takomillashtirish, gid-tarjimonlar uchun ularning funksiyalari, huquq va majburiyatlarini o'z ichiga olgan konsepsiyani ishlab chiqish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Д.Х. Кадиров. Развитие халыяльного туризма в Узбекистане // Вестник науки и образования, 2020. № 6-1 (84)
2. <https://kun.uz>